

**UO'T 631.4.6(575.16).415.52****BUGUNGI KUNDA QISHLOQ XO`JALIGIDA YER RESURSLARDAN SAMARALI BOSHQARISHNING AHAMIYATI****Asatov Jasurbek Sayitkulovich**

*Geodeziya va geoinformatika ta'lim yo`nalishi talabasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tatqiqot universiteti  
Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola bugungi kunda qishloq xo'jaligida yer resurslarini boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, yer resurslaridan samarali foydalanishni ilmiy asoslangan holda to'g'ri tashkil qilish va amalga oshirish, yerlarning hududiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq muommalar yechimini izlash kabi masalalar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *hududiy biznes, ko'chmas mulk, yer kadastri, boshqarish, yerdan foydalanish, dehqon va fermerlar, yer fondi, qishloq xo'jadaligi.*

Respublikamiz iqtisodiyotini o'zgartirish jarayonida yer munosabatlarini va yer resurslarini boshqarishning samarali ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda. Yer o'zining asosiy xususiyatlaridan tashqari ushbu resurs ishlab chiqarish vositasi, hududiy biznes, tabiiy boylik, hududiy munosabatlar va ko'chmas mulk obyekti bolib qoldi. Shuning uchun soliq solish va byudjet daromadlarini to'plashni ko'paytirishga imkon beradigan yer resurslarini boshqarishning mintaq va mahalliy o'z-o'zini boshqarish, investitsiyalar jalb qilishning yer munosabatlarining sub'ektlari uchun kafolatlangan huquq bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratishda yangi tamoyillar va usullar qo'l keladi. O'zbekistinda Respublikasining Yer kodeksida ham atrof-muhitni, jumladan yer resurslarini muhofaza qilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bunday tadbirlar sirasiga hududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini oshirish, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta sho'rlanishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish, buzilgan yerlarni qayta ekinzorlarga aylantirish kabilar kiradi. Bu masalalarni hal qilish mamlakat yer resurslarini sifat holati to'g'risida to'liq va har tomonlama ma'lumotlarga asoslanishi zarur. Jumladan, "Yer solig'i to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlarni amaliyotga tadbiriq qilish, qishloq xo'jaligida agrar islohotlarni amalga oshirish birinchi galda yer kadastri ma'lumotlariga tayanadi va bu o'z navbatida yer va suv resurslarni oqilona boshqaruvchi, kadrlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratish kerakligi to'g'risida tushunchani hosil qiladi.

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida yerlarni davlat boshqaruvining inajmualiy uslubini eng qullay qo'llash va budjet daromadlarini ko'paytirishni ta'minlovchi, yerdan foydalanishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga

muvoqif shakli sifatidagi yerni ijaraga berishning rivojlanishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga yer munosabatlarini davlat boshqaruvida yagona tartibni o'rnatish, ijara haqini oqilona uslubini ishlab chiqarish, yer bozori holatini aniq aks ettiradigan mintaqa iqtisodiyotining holati va undagi jarayonlarning boshqarish tizimida yer ijara siyosatida tadbirlar majmuasini shakllantirishning birlamchiligini hisobga oladigan hal qiluvchi ahamiyatga ega boladi. Yer munosabatini tartibga solishning uslubiy nazariyasini ishlab chiqish, yerning oldi - sotdi shakllari va uslubini faollashtirish, yar uchastkalarini xususiyashtirish jarayonlarini, investitsion, baholash, sug'urta taoliyati, ipoteka kreditlashtirish, yerga oid qimmatbaho qog'ozlar bilan muommala o'tkazishni rag'batlantirish zarur.

Yer munosabatlarini boshqarish - barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Munosabatlar ijtimoiylikdan iqtisodiy, huquqiy, ekologik va boshqarishning boshqa turarini ham o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda O'zbekiston jamoatchiligi va iqtisodiy olimlar o'rtasida yer munosabatlarini rivojlantirish mexanizmi to'g'risidagi bahslar kengaydi:

Fikrimizcha, yer munosabatlarini boshqarish - bu davlatning va jamiyatning yer resurslarini boshqarishga muntazam va muayyan maqsadga qaratilgan ta'sir ko'rsatishidir. Bu ta'sir ko'rsatish mamlakatning yer resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida obyektiv qonunlarni bilishga va ularni hayotga tadbiq etishga undaydi. Yer resurslarini boshqarish tarkibiga quydagilarni kiritishi kerak: yerdan foydalanish ustidan nazorat qilish, tashkillashtirish, tartibga solish, rejalashtirish.

Yer resurslarini boshqarish tizimining asosini obyekt, sub'ekt, predmet, maqsad, vazifalar va boshqarish funksiyasi tashkil etadi. Boshqarishning obyekt va predmeti tarixiy ijtimoiy jarayonlar natijasi bilan bilish zarur. Boshqarishning predmet va obyekt turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Masalan, ko'p qavatli binolarning yer uchastkalarini boshqarishdan talaygina farqlanadi.

Yer resurslarni boshqarishning maqsadi, mohiyati, va vazifasi mustaqil O'zbekiston jamiyatining bugungi kundagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy harakati belgilab beradi.

Boshqarish obyektini O'zbekiston Respublikasining yer fondidir, uning sub'ektlari ma'muriy - hududiy birlik, ma'muriy tumanlar, shaharlar, yerga egalik qilishning ayrim yer mulklari, huquqiy maqomda foydalanish tavsifi bo'yicha yerdan foydalanishning farqlanadigan, shuningdek yerdan foydalanishga kirmaydigan (umumiy foydalanish yerlari) yer uchastkalaridir.

Boshqarishning predmetiga yerdan foydalanishni tashkillashtirish jarayoni, ima'lum hududiy chegara doirasidagi aholining xilma-xil ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ehtiyojlar yerdan foydalanishning boshqarishga tegishli bo'lgan turli-tuman usullarini qo'llashni taqazo etadi.

Bunday usullarga quydagilar kiradi:

- Yerdan foydalanuvchi chegarasi qamrovida hududiy tashkillashtirishni amalgam oshirish;

- Yerdan foydalanish jarayoning muhandislik ta'minoti (muhandislik kommunikatsiyalari);
- Yer uchastkasining huquqiy maqomini o'rganish (mulkchilik, foydalanish maqsadi, ijara, chegaralash, saqlash vazifasini va boshqalar);
- Yerdan foydalanishning turlari (foydalanishga ruxsat berilganligi) va yo'nalishlarni o'rnatish;
- Yerdan foydalanishda samarali iqtisodiy va ekologik texnologiyalarni tadbiq etish;
- Yerning tabiiy va iqtisodiy holatining taxlili;
- Yerning miqdori va sifat holatiga va maqomiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa tadbirlar.

Bugungi kunda yerdan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning asosiy vazifalari yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishni ta'minlashdan iborat.

Yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari amalga oshiradilar.

Tabiatni muhofaza qilish jamiyatlari, ilmiy jamiyatlar va boshqa jamoat birlashmalari, shuningdek fuqarolar yerlardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat organlari va polyoska, qishloq, ovul fuqarolari o'zini o'zi boshqarish organlari ko'maklashadilar.

Mahalliy boshqaruvni maxalliy o'z-o'zini boshqaruv organlari amalga oshiradilar. Bunda boshqaruv va ham maxsus tavsiyaga ega bo'lishi mumkin. Yerlarni xo'jalik boshqaruvida yer uchastkalaridan foydalanuvchilar va mulkka egalik qiluvchilarning o'zlari amalga oshiradilar. Yer resurslarini boshqarish majmualari tavsifiga ega, chunki yer munosabatlari subyektlarining manfaatiga tegishli, binobarin yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish jarayonini boshqarishga tizimli yondashuvni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Tashkiliy, texnologik yechimlarni ekologik -iqtisodiy oqibatlar imkoniyatlari bilan bog'lashni talab qiladi. Yer resurslarini boshqarishni hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari amalga oshiradilar. Ular yer munosabatlarini soliq soladilar va yerga egalik qilish, yerni muhofaza qilish faoliyatini va shu kabi umumiy strategiyani aniqlaydilar.

Yer resurslarini boshqarish bo'yicha ijroiya - farmoyish berish organlari faoliyatining mazmuni yer resurslaridan foydalanishning rejalashtirish va bashoratlashdan iborat.

Boshqarish jarayonida axborotning vazifasi bo'yicha quyidagilarga taqsimlanadi:

- xabardor qilishga (qabul qilingan qarorni asoslash uchun foydalaniladi);
- boshqarish jarayoni shakllanadi va sub'ektga ijro etish va foydalanish uchun yetkaziladi.

Axborotni to'plash, ishlov berish va uning taxlili yaxlit boshqarish tizimining mohiyatini belgilaydi. Shuning uchun axborotlar boshqarish komponentlarini aniqlash va ulaming ma'muriy hududiy darajalarida o'zaro aloqadorligi ham muhimdir,

Axborotning manbai yer kadastrini va boshqa idoralar, shuningdek hokimiyatning ijroiya organlarining material lari bo'lishi mumkin: kartografik material, reestlar, hisobotlar, kitoblar va qaydnomalar, kataloglar, referatlar, ekspertlar ma'lumotlari, qomuslar va boshqa tekshiruv hamda taxlil materiallari.

- Yer resurslarini boshqarish bo'yich mavjud vaziyat dinamikasini baholash

- Tuman (shahar) hokimiyatda, viloyatda, mintaqada va mamlakatda siyosiy - iqtisodiy vaziyatning mavjud qonunini baholash va yer resurslarini boshqarish sohasida asosiy maqsadlarni belgilash hamda ularga erishishga to'sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash;

- Maqsadga erishish uchun tadbirlar rejasini belgilash.

Viloyat va tuman (shahar) organlari tomonidan quyidagi holatdan kelib chiqqan holda yer resurslarni boshqarishni amalga oshirish kerak:

- yer uchastkalari aniq hududlarda istiqomad qiluvchi aholiga va davlatga tegishli. Shuning uchun ulardan, foydalanish bo'yicha farmoyish berish hamda yer resurslaridan foydalanganlik uchun ma'suliyat masalalari bo'yicha ijroiya hokimiyatining tuman (shahar), viloyat va davlat organlari o'rtasida muvofiqlik zarur;

- yer resurslaridan foydalanish natijasida mintaqaning barcha aholisi manfaatdor bo'lishi kerak;

- O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga binoan, yerdan foydalanish ijara shartnomasi asosida pullik bo'lishi kerak. Yerdan foydalanganligi uchun to'lov xajmi yerlar tassarufiga kiritilgan hokimiyat organlariga viloyat hokimiyati qarorlariga muvofiqlikda, davlat yer kadastrini baholash natijalari asosida belgilangan bo'lishi kerak;

- Yer oboroti (ya'ni, yer uchastkalari bilan bog'liq barcha turdagi kelishuvlar) viloyat hokimiyati o'rnatgan qoida bo'yicha amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Bunda, yer resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha farmoyish berish foydalanish sohasida vakolatlarni chegaralash to'g'risida shartnoma nazarda tutilgan, mintaqa sharoitlari hususiyatlarini xisobga olishning majburligini inobatga olishi kerak;

- Agarda bu foydalanish jarayonida atrof muhitga yoki aholining turmish sharoitiga zarar keltirsa, viloyat hokimi har qanday mulkdorlarni yerdan foydalanishlarini chegaralashgata'sir ko'rsatishi mumkin;

Yer resurslarini umumiy davlat boshqaruvining mamlakat yer fondini barchasiga munosabati bo'yicha qator vazifalarni amalga oshiruvchi hokimiyatni ijroiya organlari amalga oshiradilar. Viloyat aholisining soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Aholining yillik o'sish darajasi 1,5% ni tashkil etadi. Muammo shundaki, aholining asosiy qismi (deyarli 95%) viloyat hududining o'zlashtirilgan qismida -vohalarda yashaydi. Bu esa qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning maydoni qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Yuqorida ko'rsatilgan omillar ta'sirida viloyatda yuzaga kelgan yerdan foydalanishdagi muammolar o'z navbatida qishloq xo'jalik iqtisodiyotining barqaror

rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatmoqda. Bunday oqibatlarini nisbatan kamaytirish va oldini olish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirish lozim:

- Qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib qolayotgan yerlarni foydalanishga kiritish choralarini ko'rish.
- Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, kredit berish va lizing shartlari va to'lovlarini pasaytirish ,
- Tuproqlarning minerallashuv darajasini pasaytirish uchun zovur tarmoqlarining FIKni oshirish lozim. Buning uchun ularda o'z vaqtida tozalash rekonstruksiya ishlarini amalga oshirib borish, asosan yopiq zovurlarni qo'llash.
- Shamol eroziyasini kamaytirish maqsadida yer maydonlari atrofida va vohalar chegarasida yashil belbog'larni tashkil qilish.
- Joylarda dehqon va fermerlarning huquqiy iqtisodiy va ekologik savodxonligini oshirish chora tadbirlarini ko'rib borish lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda qishloq xo'jaligida yer resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashda ko'pchilik hollarda umumiy yondashuvlar mavjud. Ya'ni mamalakatimizning turli mintaqalaridagi turli xil yerlarning o'ziga xos xususiyatlariga umumlantirilgan holda baho berilmoqda. Bu esa mamlakatimiz yerlarining har bir bo'lagini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asosdagi hududiy tavsiyalar va yerlardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining yangi qonuni. 19-jild. T: Adolat, 1998
2. Rahimberdievich, A. S., & Akhrorov, A. K. (2022). Contamination of Irrigated Soils with Toxic Substances and Protection of Them. *International Journal of Human Computing Studies*, 4(4), 66-70.
3. Asatov, C. P. (2020). СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРНИНГ ИККИЛАМЧИ ШЎРЛАНИШИ ВА УЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 227-228).
4. Asatov, S. R., Karimov, E. K., Ahmadov, B. O., & Akhtamov, S. F. (2021, May). Use of Land information system in district land fund distribution. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 18-19).
5. Asatov, C. P., Ahmadov, B. O., Zhuraev, K. X., & Muzaфаров, P. M. (2021). Пути улучшения эколого-мелиоративного состояния орошаемых почв Бухарского оазиса республики Узбекистан при дефиците воды. *Ж.:« Актуальные проблемы современной науки*, 4(121), 98-100.

6. Асатов, С. Р., & Нуриддинов, О. Х. (2019). Сув танқислиги шароитида Бухоро вилояти шўр тупроқлари мелиорацияси. Ozbekiston qishloq va suv hojaligi» журнали.–Тошкент, 32-33.